

HUQUQNI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI TAHLILI.

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Baxtiyorova Farangiz Ulug‘bek qizi

farangizbaxtiyorov@gmail.com

Annotatsiya: Huquq amalga oshirilgan taqdirdagina u mazmun kasb etadi jamiyat uchun ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar huquq amalga oshirilmas ekan, oxir-oqibatda o‘z mazmun-mohiyatini yo‘qotadi. Davlatda shunchaki, qonun yoki boshqa turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi orqali tartib-intizomni saqlay olmaydi, agarda normalarni amalga oshirish choralari tadbirlari ko‘rib chiqilmagan bo‘lsa.

Kalit so‘zlar: Huquq normasi talablariga rioya qilish, huquq normasida ifodalangan majburiyatlarni bajarish, subyektiv huquqdan foydalanish, huquqni qo‘llash, jinoyat protsessual huquq, konstitutsiyaviy huquq.

(Kirish qism)

Inson zotiga doimo oliy qadriyat sifatida qaralib kelinadi. U tug‘ilishi bilan bir nechta huquqlarga, ya’ni tabiiy huquqlarga yoki davlat tomonidan o‘rnatilgan pozitiv huquqlarga ega bo‘ladi. Huquq tushunchasi faqatgina vakolatli davlat organlari tomonidan qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan hujjat sifatida shaxslar tasavvurida paydo bo‘lmasligi kerak. To‘g‘ri, inson huquqlarining hujjatlarda mustahkamlab qo‘yilishi davlatlarning huquqiy tizimlari uchun ijobiy holat, ammo uning realizatsiyasi – amalga oshirilishi yanada muhimroq, nazarimda. Huquqning asl qadr-qimmatini ham uning amalda bo‘lib, kimnidir huquqbuzarlik sodir etishdan tiyilishiga sabab bo‘lishi, o‘z erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda asos vazifasini o‘tashi, jinoyatchilarga jazo muqarrar ekanligi va xulosa chiqarishga sabab bo‘luvchi xususiyatlaridadir. Professor Z.Islomovning ta’kidlashicha, “*Huquq amalga oshirilgan taqdirdagina u mazmun kasb etadi*

jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'ladi. Agar huquq amalga oshirilmas ekan, oxir-oqibatda o'z mazmun-mohiyatini yo'qotadi"¹. Davlatda shunchaki, qonun yoki boshqa turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi orqali tartib-intizomni saqlay olmaydi, agarda normalarni amalga oshirish choralari tadbirlari ko'rib chiqilmagan bo'lsa. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, ***“qonunlarni qabul qilish – bu ishning bir qismi xolos”***. Darhaqiqat, qonunning qabul qilinishi bu huquqiy tartibga solinishning dastlabki bosqichi xolos. Keyingi bosqichlarda juda katta amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar mavjud. Shu sababli normalar insonlar xatti-harakatida o'z ifodasini topishi va to'g'ri amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonlarda, albatta, davlatning ahamiyati katta. Huquqni amalga oshirishni davlatdan ajratilgan holda talqin qilish imkonsiz. Davlat huquqni amalga oshirishning o'ziga xos mexanizmlarini ishlab chiqadi. Bu orqali esa, jamiyat taraqqiyoti, fuqarolarning manfaatlarini har doim muhofaza qilish funksiyasini amalga oshiradi va demokratik jamiyat o'rnatishga kirishadi. Bu xususida, **O. Piskunova** quyidagicha fikr bildirib o'tgan, ***“O'z-o'zidan huquqiy davlat yaratish hech qachon davlatning oliy maqsadi bo'lmagan. Huquqning mohiyati amalga oshirilgandagina mazmunli bo'ladi. Uning amalga oshirilishi huquqiy tartibga solish mexanizmining yakuniy nuqtasi bo'lib, subyektiv huquqlar va yuridik majburiyatlar egasi - shaxslarning xatti-harakatlarida mujassamlashadi”***². **X. Odilqoriyev** esa bu xususida quyidagi fikrlarni berib o'tadi, ***“ huquqni amalga oshirish – davlat tomonidan yuridik mustahkamlangan va kafolatlangan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, ularni***

¹ **Исломов З.М.** Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонкулов, академик, ю.ф.д., проф., – Ҳ.Бобоев, ю.ф.д., проф. – Т.: Адолат, 2007. – 816-бет.

² Пискунова Ольга Владимировна. ФОРМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРАВА: ДИСКУССИОННЫЕ ВОПРОСЫ ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКИ., Вестник экономики, права и социологии, 2020, 3-с Available from: <https://cyberleninka.ru/article/n/formy-realizatsii-prava-diskussionnye-voprosy-obscheteoreticheskoy-traktovki/viewer>

odamlar va ularning tashkilotlari faoliyatida hayotga tadbiq etish demakdir".³

Bir soʻz bilan aytganda huquqning tom maʼnoda harakatlanishi deyish mumkin.

(Muhokama va metodlar)

Huquqni amalga oshirish bu – uni hayotga tadbiq etish ekanligini bilgan holda, huquqni amalga oshirishning ham oʻziga xos tomonlariga, insonlar harakatlarida kechadiga xulq atvorlariga koʻra, olimlar uni toʻrt xil shakli mavjudligi haqida gʻoyalarini ilgari suradi. Huquqni amalga oshirish shakllarini tasniflash nihoyatda muhim, bu masalada turlicha qarashlarga ega. “Ammo shuni taʼkidlash kerakki, bunday turli xil tasniflar ushbu hodisaning muammoli va murakkab xususiyatini koʻrsatadi. Bunday muammolardan biri, masalan, huquqni amalga oshirish shakllarini tasniflash mezonini notoʻgʻri, notoʻgʻri tanlashda yotadi, buning natijasida huquqni amalga oshirishning mohiyati notoʻgʻri tushuniladi. Terminologik noaniqlik ham mavjud. Shunday qilib, baʼzi mualliflar qonunga rioya qilish, ijro etish va undan foydalanish deganda huquqni qoʻllash shakllarini nazarda tutsalar, boshqalari buni amalga oshirish usullari deb taʼkidlaydilar”⁴. Masalan, **M.F. Orzix** *huquqni amalga oshirishning foydalanish, ijro etish, rioya qilish va qoʻllash kabi shakllarini ajratishni taklif qiladi*⁵. Qiziqarlisi, **B.V. Sheindlin** “amalga oshirishning **beshta** shaklini oʻz ichiga oladi” – deydi. Bu tasnif mutlaqo boshqacha: subektlarning huquqiy holatini amalga oshirish, taqiqlangan harakatlardan tiyilish, vakolatli shaxslarning oʻz vazifalarini bajarishi va vakolatlarini amalga oshirishi, ishtirokchilarning subyektiv huquq va majburiyatlarini amalda amalga oshirish, huquqiy taʼsir choralarini qoʻllash.⁶ Yondashuvlarning turlicha boʻlganligi uchun huquqni amalga oshirish shakllarini tasniflash dolzarb. Huquqshunos olim **Sh.A.**

³ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 366-b

⁴ Мельников Сергей Александрович . К вопросу о формах реализации права. Вестник Саратовской государственной юридической академии, 2015. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formah-realizatsii-prava>

⁵ Орзих М.Ф. Реализация советской общественностью норм общенародного социалистического права: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Харьков, 1966. С. 6. Available at: <http://lawlibrary.ru/article2361622.html>

⁶ Шейндлин Б.В. Сущность советского права: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. Л., 1962. С. 26.

Saydullayevni esa, huquqni amalga oshirish normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan qoidalarni qo‘llanish darajasiga ko‘ra:

✓ Moddalarning muqaddimalarida ko‘zda tutilgan ko‘rsatmalarni targ‘ib etish;

✓ Subyektlarning huquqiy maqomini va vakolatlar doirasini o‘rnatuvchi umumiy normalarni tadbiiq etish;

✓ Muayyan huquqiy munosabatlarga oid huquq normalarini tadbiiq etish shakllariga

Huquqni amalga oshirish subyektlariga ko‘ra:

-individual

-jamoat tomonidan


Huquq subyektlari faoliyati xarakteriga ko‘ra huquqni amalga oshirish quyidagicha tasniflaydi:

- Huquq normalariga rioya qilish.
- Huquq normalarini bajarish.
- Huquq normalaridan foydalanish.

Huquq normalarini qo‘llashga bo‘ladi.⁷ Ushbu tasniflash anchayin mukammal bo‘lib, huquqiy munosabatlarni tarkibiy qismlariga ham yetarlicha e‘tibor qaratgan, ya‘ni huquqni amalga oshirishda kechadigan jarayonlarda subyektiv va obyektiv tomon va shuningdiki huquq, vakolat va majburiyatlar ham hisobga olingan. Shunday ekan, huquq normalariga rioya etish, bajarish, foydalanishni va qo‘llashni huquqni amalga oshirish usullari emas, balki huquqni amalga oshirish shakllari sifatida bilishimiz maqsadga muvofiq. Bizningcha, huquqni amalga oshirish bu – tabiiy va pozitiv, subyektiv, obyektiv va boshqa turdagi mavjud huquqlarning insonlarning faol yoki passiv xulq-atvoriga ko‘chishi va ongli ravishda uni bajarish va amal qilish, shuningdek, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan qo‘llanishini ham tushunish mumkin. Demak, huquqning harakatlanishidan ijobiy natijalar kutiladi, negaki u bevosita

⁷ Сайдуллаев Ш. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 192- б

turmushga tadbiiq etilishi bilan inson va davlat uchun manfaatli bo‘ladi. Huquqni amalga oshirish shakllarining quyidagi to‘rt turini batafsil o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.



Dastlab, huquqni qo‘llashning asosiy shakli sifatida e‘tirof etilgan, huquq normalariga rioya qilish haqida to‘xtalib o‘tamiz. Huquq normalariga rioya qilish bu – huquqning taqiqlovchi va muhofaza qiluvchi normalarning amalga oshishida namoyon bo‘ladi. Bunda subyektlar muayyan taqiqlarga mos ravishda harakatlanadi, ya’ni man qilinga harakatlarni amalga oshirmaydi. Aynan shu shakl natijasida huquqning man qiluvchi normalari yuzaga chiqadi. Subyektlarning passiv xulq-atvorini namoyon qiladi. Bunda, mumkin bo‘lmagan xatti-harakatlarni sodir etish orqali nafaol xulq-atvorni namoyon qiladi. Huquqshunos **olim S.A. Melnikovning** fikricha: *“Huquqni amalga oshirishning ushbu shaklining o‘ziga xos xususiyati uning universalligi bo‘lib, u hamma narsani qamrab oluvchi xususiyatdan iborat (barcha shaxslar tomonidan qo‘llanilishi), huquqni qo‘llash ham barcha bosqich va tomonlarni qamrab*

*oladi*⁸. Haqiqatan, rioya etish ko‘p tarmoqli tushuncha, rioya etish natijasida jamiyatda tartib-intizom saqlanadi. Subyektlar o‘zlari ongli ravishda bu harakatlarni sodir etadi. Ular qonunga xilof ishni sodir etishdan tiyiladi. Biz kundalik hayotda ham ko‘p uchratadigan: “*yo‘l harakatlariga rioya qiling*”, “*jamoat tartibini saqlashga doir qoidalarga rioya qiling*” va hatto o‘qish yoki ish joyimizning ichki tartib-qoidalariga rioya qiling degan chaqiriqlarga duch kelamiz. Huquq normalariga rioya qilish shakliga quyidagicha amaliy misollar keltirish mumkin.

➤ a) ***Karantin davrida o‘rnatilgan qoidaga asosan niqob taqib yurish.*** Bunda karantin davrida mavjud xavfli vaziyatni hisobga olib, davlat tibbiy niqob taqmasdan harakatlanishni taqiqlagan edi. Shu sababli aholi bu normani amalga oshiradi.

➤ b) Yo‘l harakati qoidalariga doir amaliy misol. ***Qarama-qarshi yo‘nalishda harakatlanish, taqiqlangan joylarda to‘xtash joyi yoki tegishli ruxsatnomasiz haydash*** kabi bir necha normalar taqiqlarni keltirish mumkin. Shaxslar ushbu taqiqlarga ongli ravishda rioya qiladilar.

➤ c) Jinoyat kodeksining maxsus qismida belgilangan ***hech kim o‘z hayotini qonuniy himoya qilish hollaridan tashqari, boshqasining hayotini tugatishga haqli emas, ya’ni qotillikni taqiqlovchi norma hisoblanadi.***

Huquqiy majburiyatlarni bajarish – bu majburiyat yuklovchi huquq normalarning amalga oshirishining huquqiy shakli. Aslida, qonun qabul qilinishi orqali insonlarga faqatgina huquq va erkinliklar berilmaydi. Ularga vakolatlar berish bilan bir qatorda, bir nechta majburiyatlar yuklanadi. Bajarish so‘zining o‘zidan ham tahmin qilish mumkin, bu insonlarning faol xulq-atvorida yuzaga chiqadi. Bajarishga misol sifatida:

⁸ Мельников Сергей Александрович . К вопросу о формах реализации права. Вестник Саратовской государственной юридической академии, 2015. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formah-realizatsii-prava>

a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi **48-moddasi**, “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”⁹.

b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunining **28-moddasiga** ko‘ra: “Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda Senat a‘zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullansa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘n to‘rt kun ichida imzolanishi va e’lon qilinishi kerak”¹⁰. Bunda, Prezidentga qonunni **14 kun** ichida imzolash majburiyati yuklatilmoqda, Prezident bu majburiyatni shu muddatdan kechikmagan holda bajarishi va e’lon qilishi kerak.

c) Konstitutsiyamizning 51-moddasiga muvofiq, *“Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar. Bu misolga e’tibor bersak, uni amalga oshirish mobaynida aktiv harakat sodir etamiz, negaki soliqlarni to‘lash va boshqa qonun bilan belgilangan bajarish uchun shaxslar pul ishlab topadilar, majburiyatlarni bajarish uchun ham muayyan harakatlar talab etiladi”*.

Huquq normalaridan foydalanish – subyektiv huquqlar va qonuniy vakolatlardan ixtiyoriy foydalanish hisoblanadi, dipozitiv harakterga ega. Bunda, fuqarolar o‘zlariga berilgan huquq va vakolatlaridan foydaladi, jarayon majburiy emas, o‘z xohishicha amalga oshiriladi.

a) Konstitutsiyamizning 31-moddasini misol keltirish mumkin. “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”. Shaxslarga o‘zlari xohlagan dinga e’tiqod qilish huquq berilgan, undan foydalanish yoki foydalanmaslik ularning irodasi.

⁹ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03/21/671/0093-son// <https://lex.uz/docs/-20596>

¹⁰ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., // <https://lex.uz/uz/docs/-51799>

b) O‘zbekiston Jinoyat-protsesual kodeksining 36-moddasiga ko‘ra, tergovchining ishni qo‘zg‘atish va tugatish, ishni rad etish, gumondor shaxslarni ushlab va so‘roq qilish vakolatlarini amaga oshirishga haqli.¹¹ Tergovchining o‘z vakolatlaridan faol xatti-harakatlarni sodir etgan holda foydalanishi, yoki passiv xulq-atvorni namoyon qilib ayrim vakolatlaridan kam yoki deyarli foydalanmasligini kuzatish mumkin.

Huquqni qo‘llash – huquq ijodkorligi yoki ma‘muriy organlarning davlat hokimiyati vakolatlariga asoslangan yuridik normalarni hayotga tadbiq etishidir. Bu shakl qonunlarga qat‘iy amal qilishni talab etuvchi murakkab mantiqiy jarayon deb qaraladi. Imperativ harakterga ega. Huquqni amalga oshirishning bu shakliga misol sifatida:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti turli hududlarda iqtidorli xotin-qizlarni har yili “Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash” to‘g‘risidagi qarori. Prezident chiqargan ushbu huquqni qo‘llash akti individual harakterga ega, negaki mukofot bilan bir kishi taqdirlanadi.

b) Shuningdek, hokimlarni tabdirkorlik subyektlariga yer uchastkalarini ajratish to‘g‘risidagi qarorini misol qilib keltirish mumkin. Huquqni qo‘llash aktlari muayyan vaziyatni tartibga solgach o‘z yuridik kuchini yo‘qotadi.

	Huquqni amalga oshirish shakllari	Qanday xususiyatdagi normalar amalga oshiriladi?	Qanday xulq-atvor turi namoyon bo‘ladi?	Amaliy misollar
1	Huquq normalariga rioya qilish	Taqiqlovchi (man) va muhofaza	Passiv xulq-atvor	•Konstitutsiyamizning 57-moddasi, “maxfiy jamiyatlar va uyushmalar

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksi / Rasmiy nashr. Toshkent «Adolat». 2015-y.

		qiluvchi normalar		tuzish taqiqlanadi. <ul style="list-style-type: none"> •Savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, shu jumladan, dorixonalar o'z obyektlarining fasad qismini, tevarak-atroflarini toza va tartibli bo'lishini ta'minlashlari, noqonuniy e'lon, axborot va reklama vositalarini joylasmamasliklari lozim¹².
2	Huquq normalaridagi bajarish	Majburiy xarakterga ega bo'lgan normalar	Aktiv xulq-atvor	<ul style="list-style-type: none"> •Konstitutsiyamizning 50-moddasi, "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar".
3	Huquq normalaridagi foydalanish	Huquq va vakolat beruvchi normalar (dispozitiv)	Ham aktiv ham passiv xulq-atvor	<ul style="list-style-type: none"> •Konstitutsiyaning 38-moddasi, "Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar".
4	Huquqni qo'llash	Vakolatli organ va mansabdor shaxslar chiqaradigan hokimiyat xarakteridagi norma (imperativ)	Aktiv xulq-atvor	<ul style="list-style-type: none"> •Hokimning yer uchastkalari ajratish to'g'risida qaror qabul qilishi.

¹² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son// <https://lex.uz/docs/-1490544>

Prokuror tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilinishi, sud oqlov hukmini chiqarishi, fuqarolar sudga guvoh sifatida chaqirildi, talabalarning shartnoma asosida Tibbiyot Akademiyasida ta'lim olishi kabi holatlar ham huquqni qo'llashga misol bo'la oladi. Negaki, huquqni qo'llash bosqichlari faktik tomonni aniqlash bilan boshlanib, huquqni qo'llash aktini chiqarish va uning amalga oshirilishini nazorat etish bilan yakunlansa yuqoridagi vaziyatlarda ham vakolatli vakil huquqni qo'llash aktini chiqaradi va uning hayotga tadbiiq etilishini ta'minlaydi.

(Natija)

Huquqni amalga oshirish shakllari mavjud ekan davlat o'z huquqiy hayotini tartibga sola oladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qonun qabul qilish bilan hamma shaxslarning erkinligi ta'minlanmaydi yoki huquqbuzarliklarning oldi olinmaydi. Huquqni asl mazmunini anglash uchun amalga oshirish jarayonini kamchiliksiz bajarish kerak. Bizningcha, subyektlarning xatti-harakatlariga bog'liq bo'lgan huquqqa rioya qilishga rostan ham asosiy deya qarash mumkin. Chunki, bir huquq subyekti taqiqlangan va muhofaza etuvchi normalarni ongli ravishda buzmadimi, demak bu orqali turli huquqbuzarliklar oldi olinadi, shuningdek amalga oshirishning bu shakli jamiyatda barqarorlikni o'rnatishda ham naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Lekin, "besh qo'l barobar emas" deganlaridek, har doim ham aholi huquq normalariga rioya qilavermaydi. Buning sababi sifatida – huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yetishmasligini ko'rsatish mumkin. Huquq amalga oshirishning har bir shaklini o'z o'rnini bor. Agarda faqatgina rioya etish shakli bo'lib qolgan shakllar mavjud bo'lmasa, huquq to'laqonli hayotga tadbiiq etilmaydi, fuqarolarning irodasiga singmaydi. Masalan, taqiqlovchi normalarga rioya qilmaydigan shaxslarga, jazo qo'llash uchun huquqni qo'llash akti zarur bo'ladi, shaxslar hech qanday huquq va erkinliklaridan foydalanmay faqatgina qonunga rioya qilib yashay olmaydi, bu bevosita demokratiyaning yemirilishiga olib keladi. Rioya etish ma'lum jihatlari bilan bajarishga bog'liq. Demak xulosa tariqasida, huquqni amalga oshirish

shakllari bir-birini taqazo qiladi, ayrim holatlarda bir-birini to'ldiradi. Shunday ekan, ularning har biri ahamiyati, muhimlik darajasiga ega. Huquqiy davlat va demokratik jamiyat shakllantirish uchun huquqni amalga oshirishning mukammal tizimini shakllantirish lozim va bu jarayonda har qanday subyektlar o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishi, noqonuniy faoliyatlardan o'zini tiyishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Исломов З.М.** Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Раҳмонқулов, академик, ю.ф.д., проф., – Ҳ.Бобоев, ю.ф.д., проф. – Т.: Адолат, 2007. – 816-бет.
2. Пискунова Ольга Владимировна. ФОРМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРАВА: ДИСКУССИОННЫЕ ВОПРОСЫ ОБЩЕТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКИ., Вестник экономики, права и социологии, 2020, 3-с Available from: <https://cyberleninka.ru/article/n/formy-realizatsii-prava-diskussionnye-voprosy-obscheteoreticheskoy-traktovki/viewer>
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 366-b
4. Мельников Сергей Александрович . К вопросу о формах реализации права. Вестник Саратовской государственной юридической академии, 2015. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formah-realizatsii-prava>
5. Орзих М.Ф. Реализация советской общественностью норм общенародного социалистического права: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Харьков, 1966. С. 6. Available at: <http://lawlibrary.ru/article2361622.html>
6. Шейндлин Б.В. Сущность советского права: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. Л., 1962. С. 26.
7. Сайдуллаев Ш. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 192- б
8. Мельников Сергей Александрович . К вопросу о формах реализации права. Вестник Саратовской государственной юридической академии, 2015. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formah-realizatsii-prava>
9. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/21/671/0093-son// <https://lex.uz/docs/-20596>
10. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., // <https://lex.uz/uz/docs/-51799>
11. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi / Rasmiy nashr. Toshkent «Adolat». 2015-y.
12. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son// <https://lex.uz/docs/-1490544>